**XALQ DEPUTATLARI SARIOSIYO TUMANI KENGASHI**

Sariosiyo tumani, A.Qahhor ko‘chasi 1-uy, 191001, tel.: 76-48-7-64-62, faks: 76-48-7-66-66, sariosiyo.t@exat.uz

2021 - yil 30 - dekabr VI-36-57-8-116-K/21 Sariosiyo tuman hokimligi

## Sariosiyo tumanining 2022 yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6.24-moddalari, Byudjet kodeksining 99-moddasi, “2022-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq hamda Surxondaryo viloyat moliya bosh boshqarmasining 2021-yil 30-dekabrdagi 22-04-10/6394-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Sariosiyo tuman Kengashi

**QAROR QILADI:**

1. O‘zbekiston Respublikasining “2022-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni ijro va rahbarlik uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasining “2022-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida” Qonuni hamda Surxondaryo viloyat moliya bosh boshqarmasining 2021-yil 30-dekabrdagi 22-04-10/6394-sonli xatiga muvofiq, Sariosiyo tuman mahalliy byudjetining 2022-yil uchun daromadlari 105706,8 mln.so‘m, xarajatlari 214688,5 mln.so‘m prognoz qilinganligi hamda respublika byudjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar 108981,6 mln.so‘m miqdorida tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. 2022-yil uchun Sariosiyo tuman mahalliy byudjeti daromadlari prognozi 1-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. 2022-yil uchun tumanning mahalliy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. 2022-yil uchun tuman mahalliy byudjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. 2022-yil uchun tuman mahalliy byudjetining daromadlari va xarajatlarining prognozi 4-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

7. 2022-yil uchun tuman mahalliy byudjetiga viloyat mahalliy byudjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorlari 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorini tuman mahalliy byudjeti daromadlari prognozi ijrosidan qat'iy nazar kamaytirishga yo‘l qo‘yilmasligi Qonunda belgilab qo‘yilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

8. 2022-yil uchun tuman mahalliy byudjetining zaxira jamg‘armasi hajmlari 2024,4 mln. so‘m miqdorida belgilansin.

Tuman mahalliy byudjetining 2022-yil uchun zaxira jamg‘armalari tegishli tasdiqlangan byudjeti umumiy xarajatlarining kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantirilsin.

Sariosiyo tuman byudjeti ijro etishda yuqori turuvchi byudjetdan ularga ajratiladigan byudjetlararo transfertlarning prognozidan oshgan qismi uchun tegishli byudjetning zaxira jamg‘armasi miqdoriga aniqlashtirish kiritilmaydi.

9. 2022-yil uchun tuman mahalliy byudjeti shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 6-ilovaga muvofiq belgilansin.

10. O‘zbekiston Respublikasining mazkur Qonuni bilan 2022 yilda xalq deputatlari Kengashlarini mahalliy byudjetlarni boshqarishda, xususan mahalliy byudjet xarajatlarini hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo‘yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

Shuningdek, 2022-yilda quyidagi soliq turlari:

a) tuman mahalliy byudjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan qat'iy belgilangan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

aylanmadan olinadigan soliq;

Noruda qurilish materiallari uchun yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq;

Mobilь aloqa xizmatlari uchun aktsiz solig‘i va alkogolь mahsulotlari, tamaki mahsulotlari aktsiz solig‘i, shu jumladan pivo uchun aktsiz solig‘idan tushumlar 2021-yil 1-iyul holatiga ko‘ra tuman va shahar aholisining viloyat aholisidagi ulushiga muvofiq taqsimlansin.

Davlat mulkini foydalanishga (ijaraga) berishdan tushumlar;

Yig‘imlar.

b) viloyat byudjeti hamda shahar va tumanlar byudjetlari o‘rtasida taqsimlanadi:

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i hamda tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq;

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

benzinni, dizelь yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aktsiz solig‘i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stantsiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno;

davlat aktivlarini sotishdan qonunchilikda belgilangan normativlar bo‘yicha olingan daromadlar;

(har bir soliq turi bo‘yicha ajratmalar normativi ko‘rsatiladi)

11. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari A.Bo‘riev, tuman Moliya bo‘limi mudiri E.Xasanov, tuman Davlat soliq inspektsiyasi R.Meliboev tuman hokimligi va mas’ul tashkilotlar bilan birgalikda:

tegishli byudjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy byudjeti prognoz ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarish;.

byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

byudjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

tegishli mahalliy byudjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

byudjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

12. Tuman davlat soliq inspektsiyasi (R.Meliboev) O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida byudjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirish;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlililar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

Bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratsinlar.

xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish vazifasi yuklatilsin.

13. Tuman davlat soliq inpektsiyasi (R.Meliboev), Kadastr agentligi tuman bo‘limi (I.Qurbonov) 2022-yildan boshlab yuridik shaslar mol-mulk solig‘ini hisoblashda ko‘chmas mulklarga 1 kv.metr uchun minimal miqdorlar joriy etilganligidan kelib chiqib, tumanda mavjud soliq to‘lovchilarning mol-mulklari maydonlarini chuqur tahlil etgan holda ushbu mol-mulklarga nisbatan soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlasin.

14. Tuman davlat soliq inspektsiyasi (R.Meliboev), Kon-geologiya faoliyatini nazorat qilish inspektsiyasining janubiy mintaqaviy inspektsiyasi (Sh.Toshtemirov) hamda tuman hokimligi bilan birgalikda:

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlarni aniqlash bo‘yicha xatlovlar o‘tkazish;

xatlov natijalari bo‘yicha aniqlangan noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlar faoliyatini qonuniylashtirish hamda ularni soliq bazasiga qamrab olish;

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida faoliyat olib borayotgan karerlar tomonidan qazib olinayotgan noruda qurilish materiallar hajmining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

Bunda, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan karerlarning qazib olish hajmlarini doimiy tahlil qilib borish hamda zarur hollarda qazib olish hajmlarini aniqlashda mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan “marksheydrlik” xizmatlaridan foydalanish lozimligi alohida belgilab qo‘yilsin.

15. Majburiy ijro byurosi Sariosiyo tuman bo‘limi tuman davlat soliq inspektsiyasi bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini byudjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsin hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko‘rish vazifasi yuklatilsin.

16. Mahalla va oilani qo‘llab quvatlash bo‘limi (Sh.Raxmonov), tuman hokimligi jismoniy shaxslarning yer va mol-mulk soliqlari bo‘yicha joriy hisoblangan soliqlarni hamda ushbu soliqlardan mavjud soliq qarzdorliklarini undirish yuzasidan soliq organlariga amaliy yordam ko‘rsatsin.

17. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (A.Bo‘riev) Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Surxondaryo viloyati hududiy boshqarmasi (S.Xaliqov) Bo‘sh turgan ob’ektlaridan samarali foydalanishni tashkil etish markazining Surxondaryo viloyati hududiy boshqarmasi (Y.Namozov) bilan birgalikda:

bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlarini aniqlash bo‘yicha xatlov ishlarini samarali tashkil etish;

xatlov natijalariga ko‘ra tumanda mavjud bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlari ro‘yxatini shakllantirish;

shakllantirilgan ro‘yxatga asosan bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha tegishli takliflar tayyorlash;

bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida roliklar va

video-materiallar tayyorlash;

xususiylashtirilishi mo‘ljallangan bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlarini «e-ijro auction» mayonchasi orqali sotish ishlarini tashkillashtirish vazifasi yuklatilsin.

18. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (A.Bo‘riev) Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Surxondaryo viloyati hududiy boshqarmasi (S.Xaliqov), tuman davlat soliq inspektsiyasi (R.Meliboev) davlat korxonalari hamda ustav kapitalida 50 foiz va undan ortiq davlat ulushi mavjud bo‘lgan yuridik shaxslar tomonidan 2022-yilning 1-iyuliga qadar

2021-yil yakunlari bo‘yicha o‘z sof foydasining 50 foizidan kam bo‘lmagan miqdoridagi ajratmalar va davlat ulushi bo‘yicha dividendlarni 2022-yilning

1 sentyabridan kechiktirmay tegishli darajadagi byudjetlarga o‘tkazilishini ta’minlasin.

19. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (A.Bo‘riev) Monopoliyaga qarshi

ko‘rashish qo‘mitasi Surxondaryo viloyati hududiy boshqarmasi (E.Eshkeldiev) bilan birgalikda tashqi reklama ob’ektlarini to‘liq xatlovdan o‘tkazgan holda, ushbu tashqi reklama ob’ektlari bo‘yicha shartnomalar tuzish choralarini ko‘rsin hamda ushbu shartnomalar bo‘yicha yig‘imlarni byudjetga to‘lanishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

20. Tuman Irrigatsiya bo‘limi (R.Turdiev) va tuman davlat soliq inspektsiyasi (R.Meliboev), tuman hokimligi bilan birgalikda tumanda sug‘orishga sarflanayotgan suv hajmlari bo‘yicha aniq hisob-kitoblar yuritgan holda mazkur iste’mol hajmlari bo‘yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarni to‘liq hisoblanishini hamda moliya yili yakuniga qadar mahalliy byudjetlarga to‘liq undirib olish vazifasi yuklatilsin.

Bunda, qishoq xo‘jaligi korxonalari tomonidan iste’mol qilinayotgan suv resuslari hajmlari va ushbu hajmlar bo‘yicha hisoblanayotgan suv soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazishga alohida e’tibor qaratilsin.

21. Tuman ichki ishlar bo‘limi (O‘.Mustafoqulov), tuman Davlat xizmatlari agentligi (J.Xolbadalov) hisoblangan boj, jarima va yig‘imlarni o‘z vaqtida o‘rnatilgan tartibda byudjetga undirish choralarini ko‘rib borsin.

22. Kengashning mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi:

mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi hokimlik tomonidan taqdim etilgan takliflari asosida byudjet qonunchiligiga to‘liq rioya etilgan holda Kengash qaror loyihasini ishlab chiqilishiga;

Kengash qarori asosida mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larni samarali va maqsadli foydalanishi ustidan nazorat o‘rnatishga va natijalari bo‘yicha tavsiyalar berishga monitoring qilishga;

mahalliy byudjet xarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishida ishtirok etadi va ushbu mablag‘larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirishga mas’ul etib belgilansin.

23. Tuman hokimligiga:

Tuman byudjeti jami xarajatlarining 5 foizi hamda shakllangan qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirsin.

Bunda, tuman xalq deputatlari, Yoshlar ishlar agentligi, tuman hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashlari hamda yangi joriy etilgan hokim yordamchilari byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga masul etib belgilansin;

mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruktsiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan ob’ektlar ro‘yxati, shuningdek qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10 sanasiga qadar majburiy tartibda tegishli hokimlik rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borilsin.

24. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari A.Bo‘riev, xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati, tuman hokimligi, tegishli tashkilot boshliqlari:

mahalliy byudjet daromad va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko‘rilgan chora-tadbirlar;

ajratilgan byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishi yuzasidan erishilgan natijalar bo‘yicha Kengashga bir chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib borsin.

25. Tuman hokimligi Qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin.

26. Mazkur qaror “Sariosiyo” gazetasida rasmiy e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

27. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

28. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi va tuman hokimligi zimmasiga yuklatilsin.

**Tuman hokimi** **A.P.Xujaqulov**

Халқ депутатлари Сариосиё туман
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-36-57-8-116-K/21-сон қарорига
1-илова

## 2022 yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

| T/R | Daromad turlari | Jami |
|---|---|---|
| | | |
| **JAMI** | | **105 706 806,0** |
| 1 | Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i | 0,0 |
| 2 | Yagona soliq to‘lovidan Davlat byudjetiga ajratmalar | 8 291 000,0 |
| 3 | Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i | 33 115 000,0 |
| 4 | Qo‘shilgan qiymat solig‘i | |
| 5 | Tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yuridik va jismoniy shazslardan olinadigan qatьiy belgilangan daromad solig‘i | 1 102 000,0 |
| 6 | Aktsiz solig‘i, jami | 37 392 806,0 |
| | *shu jumladan:* | |
| | *- benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiyasidan soliq* | *2 738 800* |
| | *- alkogolь aktsiz (shu jumladan pivo)* | *13 116 125,0* |
| | *- Mobil aloqa qurilmalariga aktsiz* | *7 472 244,0* |
| | *- Tamaki maxsulotlariga aktsizsolig‘i* | *14 065 637,0* |
| 7 | Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq | 5 629 500 |
| 8 | Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq | 3 985 000,0 |
| 9 | Yuridik shaxslar yer solig‘i | 1 674 500 |
| 10 | Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i | 7 510 000,0 |
| 11 | Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq (noruda materiallari) | 1 308 000,0 |
| 12 | Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq | 816 000,0 |
| 13 | Davlat boji | 0,0 |
| 14 | Jarimalar | 0,0 |
| 15 | Ijara to‘lovi | 188 000,0 |
| 16 | Davlat tashkilotlarining sof foydasidan daromad | 0,0 |
| 17 | Yig‘imlar | 4 500 000 |
| 18 | Xususiylashtirish | 195 000 |

Халқ депутатлари Сариосиё туман
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-36-57-8-116-K/21-сон қарорига
2-илова

**2022 yil uchun Sariosiyo tumani byudjetidan birinchi darajali byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan parlament ajratmalarining cheklangan miqdorlari**

| *№* | **Ko‘rsatkichlar** | **miqdori (ming so'mda)** |
|---|---|---|
| | **Xarajatlar miqdori, Jami** | **214 688 459,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | **214 688 459,0** |
| | ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruktsiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar | |
| *1.* | **Xalq ta’limi vazirligi muassasalari** | **9 790 092,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 9 790 092,0 |
| | ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruktsiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar | |
| *2.* | **Maktabgacha ta’lim vazirligi muassasalari** | **13 215 735,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 13 215 735,0 |
| | ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruktsiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar | |
| *3.* | **Sog‘liqni saqlash vazirligi muassasalari** | **73 691 984,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 73 691 984,0 |
| | ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruktsiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar | |
| *4.* | **Tibbiy-ijtimoiy xizmatlar uchun xarajatlar** | **46 800,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 46 800,0 |
| | ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruktsiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar | |
| *5.* | **Madaniyat vazirligi muassasalari** | **2 128 314,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 2 128 314,0 |
| | ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruktsiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar | |
| *6.* | **Jismoniy tarbiya va sport vazirligi muassasalari** | **2 885 688,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 2 885 688,0 |
| | ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruktsiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar | |
| *7.* | **Tuman fermer xo‘jaliklarida buxgalteriya xisobi va xisobotini yuritish markazi** | **267 633,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 267 633,0 |
| | ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruktsiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar | |
| *8.* | **Irrigatsiya bo‘limi** | **1 302 299,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 1 302 299,0 |
| | ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruktsiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar | |
| *9.* | **Veterinariya qo‘mitasi muassasalari** | **1 810 965,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 1 810 965,0 |
| | ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruktsiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar | |

| | | |
|---|---|---|
| *10.* | **Mahalliy byudjetlarda hokim yordamchilarining tavsiyalari asosida mahalla infratuzilmasini yaxshilash uchun** | **1 541 528,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 1 541 528,0 |
| | ob'ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruktsiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar | |
| *11.* | **Tuman Bandlikka ko'maklashish markazi** | **650 471,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 650 471,0 |
| | ob'ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruktsiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar | |
| *12.* | **Tuman Moliya bo'limi** | **865 547,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 865 547,0 |
| | ob'ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruktsiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar | |
| *13.* | **Tuman Maxalla va Oilani qo'llab quvvatlash bo'limi** | **530 903,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 530 903,0 |
| | ob'ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruktsiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar | |
| *14.* | **Tuman Qishloq xo'jaligi bo'limi** | **531 952,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 531 952,0 |
| | ob'ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruktsiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar | |
| *15.* | **Tuman Xokimligi** | **2 570 387,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 2 570 387,0 |
| | ob'ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruktsiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar | |
| *16.* | **Tuman Halq qabulxonasi** | **80 863,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 80 863,0 |
| | ob'ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruktsiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar | |
| *18.* | **Halq deputatlari tuman kengashi kotibyati** | **194 925,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 194 925,0 |
| | ob'ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruktsiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar | |
| *19.* | **Tuman Maxallabay ishlash markazi** | **5 200 290,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 5 200 290,0 |
| | ob'ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruktsiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar | |
| *20.* | **Tuman Madaniyat bo'limi aparati xarajatlari** | **147 328,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 147 328,0 |
| | ob'ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruktsiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar | |
| *21.* | **Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini saqlash xarajatlari** | **5 970 906,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 5 970 906,0 |
| | ob'ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruktsiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar | |
| *22.* | **Obodonlashtirish boshqarmasi** | **11 109 627,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 11 109 627,0 |
| | ob'ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruktsiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar | |

| | | |
|---|---|---|
| *23.* | **Ijtimoiy moslashuv markazlari** | **60 301,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 60 301,0 |
| | ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruktsiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar | |
| *24.* | **Ijtimoiy nafaqalar** | **67 846 253,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 67 846 253,0 |
| | ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruktsiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar | |
| *25.* | **Zaxira jamg‘armasi** | **2 024 408,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 2 024 408,0 |
| | ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruktsiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar | |
| *26.* | **Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi** | **10 223 260,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 10 223 260,00 |
| | ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruktsiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar | |

Халқ депутатлари Сариосиё туман Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-36-57-8-116-K/21-сон қарорига
3-илова

**Umumdavlat soliqlaridan shahar va tumanlar mahalliy byudjetlariga ajratmalar me’yori**

Foiz hisobida

| Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i | Yagona soliq to‘lovi | Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i | Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i | Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq | Aktsiz solig‘i: - benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiyasidan soliq | Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq | Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq | Noruda qurilish materiallari uchun yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq | Yuridik shaxslar yer solig‘i | Jismoniy shaxslarning yer solig‘i | Yig‘imlar | Ijara to‘lovlari | Xususiyl-ashtirish |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 0 | 100 | 100 | 50 | 50 | 40,0 | 50 | 100 | 100 | 50 | 100 | 100 | 100 | 20 |

Халқ депутатлари Сариосиё туман
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-36-57-8-116-K/21-сон қарорига
4-илова

## Sariosiyo tuman mahalliy byudjetlarining 2022 yil daromadlari va xarajatlariing chegaraviy hajmi

*ming so‘mda*

| Hudud nomi | Daromad | Xarajat |
|---|---|---|
| **JAMI** | **105 706 806,0** | **214 688 459,0** |
| Sariosiyo tuman | 105 706 806,0 | 214 688 459,0 |

Халқ депутатлари Сариосиё туман
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-36-57-8-116-K/21-сон қарорига
5-илова

## Sariosiyo tuman mahalliy byudjetining 2022 yilgi yuqori byudjetdan ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorlari

*ming so‘mda*

| **Shahar va tumanlar** | **Tartibga soluvchi transfert miqdori** |
|---|---|
| **JAMI** | **108 981 653,0** |
| *shundan* | |
| Sariosiyo tuman | 108 981 653,0 |

Халқ депутатлари Сариосиё туман
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-36-57-8-116-K/21-сон қарорига
6-илова

**2022 yilda Sariosiyo tuman mahalliy byudjetida yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori**

ming so‘mda

| **T/r** | **Hudud nomi** | **Miqdor** |
|---|---|---|
| | **JAMI** | **1 001 710,0** |
| | *shundan* | |
| 1 | Sariosiyo tuman | **1 001 710,0** |